

TALABALARDA AXBOROT SAVODXONLIGI KOMPETENSIYALARINI TANQIDIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КРИТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

DEVELOPING STUDENTS INFORMATION LITERACY COMPETENCIES THROUGH A CRITICAL APPROACH

XIDIROVA UMIDA ERKINOVNA
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tanqidiy yondashuv asosida universitet talabalari axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi, uning mohiyati, tuzilishi va ta'limiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, raqamli jamiyat sharoitida talabalarda axborot savodxonligini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinib, tanqidiy fikrlash tamoyillariga asoslangan didaktik model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, tanqidiy yondashuv, media savodxonlik, raqamli kompetensiya, axborot xavfsizligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие информационной культуры студентов вузов на основе критического подхода, раскрываются её сущность, структура и образовательное значение. Также анализируются процессы формирования информационной грамотности студентов в условиях цифрового общества и предлагается дидактическая модель, основанная на принципах критического мышления.

Ключевые слова: информационная культура, критический подход, медиаграмотность, цифровая компетентность, информационная безопасность, инновационные образовательные технологии

Abstract. This article examines the development of university students' information culture based on a critical approach, clarifying its essence, structure, and educational significance. It also analyzes the processes of forming students' information literacy in a digital society and proposes a didactic model based on the principles of critical thinking.

Keywords: information culture, critical approach, media literacy, digital competence, information security, innovative educational technologies

Globalashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi raqamli muhitda talabalar ulkan hajmdagi axborot, turli media materiallar hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqaluvchi, ko'pincha tekshirilmagan ma'lumotlarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda axborotni izlash, uning ishonchliligini baholash, tanqidiy tahlil qilish va undan samarali foydalanish har bir talaba uchun muhim kompetensiyaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu jarayon samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim jarayonida tanqidiy yondashuvni qo'llash zarur. Tanqidiy yondashuv talabalarga nafaqat axborotga ega bo'lish, balki uni tahlil qilish, baholash va ongli ravishda qo'llash imkonini beradi.

Pol Zurkovskiy fikriga ko'ra, axborot savodxonligi — bu axborotni izlash, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyatidir. Kristin Bryus esa axborot savodxonligini faqat texnik ko'nikmalar emas, balki axborot bilan ishlashning tafakkur usuli sifatida talqin qiladi. Kerol Kulthau axborot izlash jarayonini kognitiv va emotsional jarayon sifatida izohlaydi, Maykl Ayzenberg esa Big6 modeli orqali axborot muammolarini tizimli hal etish usullarini taklif etadi. Jeyms Elmborg va Genri Jiru tadqiqotlarida tanqidiy yondashuv axborot manbalarining ishonchliligi va kontekstini shubha ostiga olishga undashi ta'kidlanadi. Nil Selvin raqamli texnologiyalar yangi tanqidiy yondashuvlarni talab qilishini ko'rsatadi. Alan Bandi esa axborot savodxonligini o'quv dasturlariga integratsiya qilish muhimligini

ta'kidlaydi. Sonya Livingstoun zamonaviy jamiyatda noto'g'ri axborotga qarshi kurashishda tanqidiy baholash muhimligini qayd etadi.

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. Bu jarayon axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, undan samarali foydalanish va axborot xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Axborot madaniyati rivojlangan talaba raqamli muhitda mustaqil faoliyat yurita oladi, ilmiy tadqiqotlar olib boradi va ishonchli manbalardan foydalanadi. Axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi raqamli savodxonlikdir. U nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki texnologiyalarni samarali qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Talabalar onlayn kutubxonalar, ilmiy bazalar va elektron resurslar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Tanqidiy yondashuv analitik va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantiruvchi metodologik asos hisoblanadi. U axborot madaniyatining markaziy elementi hisoblanadi. R. Pol va L. Elder axborot madaniyatini axborotni izlash, tekshirish va xulosa chiqarish qobiliyati bilan bog'laydi. Kristin Bryus esa uni "axborot bilan ongli muloqot madaniyati" deb ta'riflaydi.

O'zbek olimlari — B. Qodirov, N. Jo'rayev, D. Xudoyberdiyeva va M. Usmonxo'jayevlar axborot madaniyatini media savodxonlik, raqamli kompetensiya va axborot xavfsizligi bilan bog'laydilar. Tanqidiy yondashuv nazariyasi J. Dyui, K. Popper va R. Ennis qarashlariga asoslanadi. Bugungi kunda axborot eng muhim resurslardan biriga aylangan. Axborot oqimining keskin ortishi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotni ajratishni qiyinlashtirmoqda. Shu sababli axborot madaniyati nafaqat texnik bilimlarni, balki axloqiy me'yorlarni ham o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida tanqidiy yondashuv quyidagi komponentlar orqali shakllanadi:

- mantiqiy fikrlash;

- dalillarni tahlil qilish;
- turli nuqtai nazarlarni solishtirish;
- muammolarni aniqlash va yechim topish;
- asoslangan xulosalar chiqarish.

Bu yondashuv talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Zamonaviy ta'limda muvaffaqiyat faqat axborotga ega bo'lish bilan emas, balki undan samarali foydalanish bilan belgilanadi. Axborot kompetensiyasi texnik ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, axloqiy ong va madaniy yondashuvni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar katta hajmdagi axborotni boshqarishda qiynaladilar. Shu sababli ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash zarur. Loyihaviy ta'lim, muammoli ta'lim va gamifikatsiya usullari samarali hisoblanadi. Shuningdek, axborotdan foydalanishda ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muhimdir. Axborot nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy resurs hamdir. Interaktiv metodlar, muammoli topshiriqlar va raqamli texnologiyalar talabalarni axborotni tahlil qilish, tushunish va yetkazish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Bu talab pedagog-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, shaxs qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalarni shakllantirdi.

Bular:

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish,

kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Pedagogning axborotlarni izlash, tahlil qilish, saralash, qayta ishlash hamda ulardan ta'lim amaliyotida foydalanish malakasi, qobiliyatiga ega bo'lishi axborot kompetensiyasi deyiladi.

Axborot kompetensiyasi ham boshqa turdagi kompetensiyalar bilan birga pedagogda muhim kasbiy sifatlar (MKS) majmuaining shakllantirishni taqozo etadi. Binobarin, "muhim kasbiy sifatlar mutaxassisni kasbiy talab va me'yorlar darajasida faoliyat yuritishini ta'minlovchi birlamchi asos hisoblanadi". Kommunikatsiya va kommunikativlik bir-biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi. Agarda "kommunikatsiya" – xabar yetkazish yo'li, o'zaro aloqa shakli, muloqot hodisasi ma'nolarini anglatib, muloqotning turli axborot vositalari yordamida amalga oshirilishini anglatga, kommunikativlik shaxsning muloqotni amalga oshirishga yordam beradigan xislati sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kommunikativ kompetentlik til va nutqiy savodxon, muloqotni amalga oshirish qoidalarini bilish, xushmuomalalilik, nutq madaniyatiga egalik, muayyan vaziyatda undan samarali foydalanish malakalariga egalik demakdir.

"Axborot savodxonligi" tushunchasi dastlab 1977 yilda AQSHda til iste'moliga kiritilgan va oliy ta'limni isloh qilishga oid milliy dasturda qo'llanilgan. Amerika davlat ta'lim standartiga ko'ra, axborot savodxonligiga ega talaba mavjud sharoit yoki o'rganilayotgan masalaga mos keladigan axborotni topa olishi, uning to'g'riligini aniqlashi, dalil yoki fikr o'rtasidagi farqni ajrata bilishi, keraksiz axborotlardan voz

kechish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

"Axborot savodxonligi" tushunchasi o'tgan asrning 90-yillarida keng qo'llanila boshlangan bo'lib, shaxsning axborotni o'zlashtirishga bo'lgan yondashuvi va munosabatini ifodalovchi holatni anglatishga xizmat qilgan. Mazkur g'oyani ilgari surgan tadqiqotchilardan biri N.V.Soroko sanaladi. Muallifning fikriga ko'ra, bosma va yozma manbalarda yoritilgan axborot bilan tanishish, uni izlash, tahlil asosida saralash, qayta ishlash, undan amaliyotda foydalanishda yuqori samaradorlik bevosita kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga ta'minlanadi.

Amerika kutubxonalar assotsiatsiyasi (The American Library Association) 1989 yilda XXI asrning axborotlashtirish asri bo'lishi munosabati bilan o'quv jarayonining tarkibiy tuzilmasi va qismlarini qayta ko'rib chiqish asosida takomillashtirish taklifini ilgari surdi. Assotsiatsiya turli manbalardan oladigan ma'lumotlarni topa olishi, baholay bilishi va undan foydalanishini pedagogning "axborot savodxonligi" ekanligiga urg'u berdi. 1998 yilda esa Assotsiatsiya keyinchalik "axborot savodxonligi standarti" deb nom olgan "Talabalarni o'qitish uchun axborot savodxonligi standartlari" ("Information Literacy Standards for Student Learning")ni ishlab chiqdi.

A.V.Goryachev "axborot savodxonligi" tushunchasi negizida axborot kompetentligi ham aks etishi zarurligini uqtiradi. Muallifning fikriga nisbatan munosabat bildirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizga ko'ra, kompetentlik savodxonlikka nisbatan shaxsning yuqori bosqich, darajadagi bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, kasbiy sifatlarini ifodalaydi.

Har qanday holatda ham savodxonlik kompetentlik uchun boshlang'ich asos, dastlabki daraja sanaladi.

Mualliflar "axborot-kommunikatsion savodxonlik" tushunchasini yoritishda ham turlicha yo'l tutadi. Xususan, tushuncha

ifodalaydigan holatni V.F.Burmakina “raqamli texnologiyalar, kommunikatsiya vositalar, axborotni olish imkoniyatini ta’minlovchi tarmoqlar orqali axborotlarni uzatish, raqamli texnologiyalar, kommunikatsiya vositalar, axborotni olish imkoniyatini ta’minlovchi tarmoqlarni boshqarish, integratsiyalash, zamonaviy jamiyatda qo’llanilishini baholash” tarzida ifodalasa, Z.N.Novikova “foydalanuvchi tomonidan o’z faoliyatining axborot texnologiya vositasi sifatida kompyuter va axborot texnologiyalarini qo’llash”dan iboratligini e’tirof etadi.

Bizning fikrimizcha, V.F.Burmakina tomonidan bildirilgan fikr “axborot-kommunikatsion savodxonlik” tushunchasining mohiyatini yoritishga emas, balki raqamli texnologiyalar, kommunikatsiya vositalar, axborotni olish imkoniyatini ta’minlovchi tarmoqlar hamda ularning axborotni uzatish, ulardan foydalanish borasidagi mavjud vaziyatni baholashga, shaxsning bu jarayonga yondashuvi uning munosabatini belgilashga xizmat

qiladi. Z.N.Novikovaning ta’rifini ham mazmunan takomillashtirish talab etiladi. Chunki, pedagogning o’z kasbiy faoliyatida kompyuter va axborot texnologiyalarini qo’llashi savodxonlikdan yuqori daraja sanaladi.

Talabalarda axborot madaniyatini tanqidiy yondashuv asosida rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo’nalishidir. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki:

- tanqidiy yondashuv analitik fikrlashni rivojlantiradi;
- axborot madaniyati media savodxonlik, raqamli kompetensiya va axborot xavfsizligini o’z ichiga oladi;
- tanqidiy fikrlash mustaqil ta’limni rivojlantiradi;
- didaktik model tizimli rivojlanishni ta’minlaydi.

Natijada, tanqidiy yondashuvga asoslangan ta’lim tizimi talabalarni murakkab axborot muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi 2030. Toshkent.
4. Qodirov, B. Axborot madaniyati asoslari. Toshkent.
5. Jo'rayev, N. Zamonaviy ta'limda axborot madaniyati. Toshkent.
6. Xudoyberdiyeva, D. Media savodxonlikning pedagogik asoslari. Toshkent.
7. Usmonxo'jayev, M. (Axborot texnologiyalari va ta'lim. Toshkent-2018
8. Livingstone, S. Internet literacy: Young people's negotiation of new online opportunities. Digital Youth, Innovation, and the Unexpected, 101–122.
9. Paul, R., & Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Upper Saddle River: Pearson.
10. Dewey, J. How We Think. New York: D.C. Heath and Company.
11. Popper, K. The Logic of Scientific Discovery. London: Routledge.